

**She'riyatda individual uslub va ritm****Ro'zimurodova Norbibi Chorixo'jayevna**

TerDU Erkin tadqiqotchisi

Tel: +99888 785 59 54

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy sh'eriyaatning individual uslub va ritmi xususida so'z borilgan. Zamonamizning mashhur shoiri Salim Ashurning ayrim she'rlarini uslub va ritmi tahlilga olingan.

Kalit so'z: Uslub, ritm, Salim Ashur, tahlil qilish, so'zlanish.

Abstract: This article discusses the individual style and rhythm of modern poetry. The style and rhythm of some poems of the famous poet of our time, Salim Ashur, are analyzed.

Key words: Style, rhythm, Salim Ashur, analysis, speech

Аннотация: В данной статье говорится об индивидуальном стиле и ритме современного шариата. Проанализированы стиль и ритм некоторых стихотворений Салима Ашура, известного поэта современности.

Ключевые слова: Стиль, ритм, Салим Ашур, анализ, речь.

Asrlar davomidagi o'z individual uslubi va ovozigaga ega bo'lgan ijodkorlarga badiiy adabiyotning yuksak cho'qqillarini zabt etib kelmoqda. Bu ulug' adiblar o'zlari yaratgan asarlari bilan bugungi kunga qadar ustoz ijodkor sifatida tilga olib kelinmoqda va adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy-nazariy masalalarga bag'ishlangan ishlarning ilk avvalida ham aynan ularning nomlari qayd etilayotganiga guvoh bo'lamiz.

Har bir ijodkorning o'zigagina xos betakror uslubi bo'lsagina u chin iste'dod sohibi sifatida betakror asarlar yarata oladi. Bu asarlarda ijodkor parchalarga bo'linib ketib, o'z so'zini aytadi. Shuning uchun ham har bir asar yaratuvchisining iqrornomasi bo'lib qoladi.



Farang faylasufi Volter shunday yozadi: “Har qanday ijod namunasi ijodkor to'g'risida guvohlik beradi. Hech narsa meni bu oddiy aksiomadan qaytaraolmaydi”. Uslub haqida nazariy kitoblar va turli lug'atlarda xilma-xil fikrlar bildirilgan. Jumladan, N.Xotamov, B.Sarimsoqov tomonidan tartib berilgan “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekchi izohli lug'ati”da shunday yozilgan: “1. Yozuvchi ijodi uchun g'arakterli bo'lga ifodalash yo'li, g'oyalar birligi, dunyoqarashning umumiyligi. 2. Ifodalash usuli”. [1, B 296]

Adabiyot shunos D.Quronov va b.larning adabiyotshunoslik lug'atida esa, anchayin aniqroqtavsif beriladi. “Badiiy asarning u yoki bu tarzda shakli qurilishini belgilovchi umumiy prinsip. Uslub antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Uslubda namoyon bo'luvchi ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika) birdek ko'zga tashlanadi. Ya'ni u badiiy shaklning unsuri emas, balki unga xos xususiyatdir”. [2, B 341]. Shu nuqtai nazardan, masalaga yondashsak o'z-o'zidan ritm masalasiga ham oydinlik kiritiladi. Chunki ritm ijodkor ruhiy olamining, his-tuyg'ularining yuksak pafosdagi ohangdorligi, sehr-jilolari aks etadi. O'zbek adabiyotshunosligida ritm masalasini ilmiy-nazariy yo'nalishda atroflicha o'rgangan Izzat Sulton, Ummat To'ychiev, Bohodir Sarimsoqov, nuriddin Shukuruv kabi olimlarning har biri ritmni she'riy nutqning bosh belgisi. Yeleменти sifatida e'tirof etadilar. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov esa ritmga shunday ta'rif beradi: “Ritm nihoyatda keng tushuncha bo'lib, ritmik borliqdagi juda ko'p narsa-hodisalar, tabiiy jarayonlarga xosdir. Shunga ko'ra keng ma'noda ritm deganda muayyan bo'laklarning ma'lum vaqt oralig'ida tartibli takrorlanib turishitushiniladi”. [3, B 292]

Dunyoda muayyan tartibsiz harakatlanuvchi biror holat yoki hodisa bo'lmagani kabi real hayotning inikosi bo'lgan badiiy adabiyotni, ayniqsa, she'riyatni ritmsiz tasavvur qilish mumkin emas.

“Yovvoyi tabiatning o'zidek tabiiy bo'lmagan har qanday ijod namunasi ma'lum bir muddatdan so'ng o'quvchini zeriktiradi, toliqtiradi, unga bo'lgan qiziqish, hayajon so'nadi.



Tovushlarning jarangi, so'zlarning nafasi ufurib turmagan she'r kitobxonni o'ziga rom qilolmaydi, uning ko'ngil mulkiga aylana olmaydi”. [4, B 4]

O'z shaxsiy ijod yo'nalishiga ega bo'lgan ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlar xoh nasrda, xoh nazmda bo'lsin ularning barchasida o'z sohibining ovozi –ritmi yangraydi. Ayniqsa, bu ovoz she'riyatda ijodkor individual uslubining asosiy qirrasini, teng bir pallasini tashkil qiladi. Bu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, bir-birini taqozo etuvchi ikki individual uslub va ritm tushunchalarini ayro holda tadqiq qilish murakkab masala ekanligini anglaymiz.

Ayni shu nuqtai nazarga ko'ra, ushbu faslda Salim Ashur she'riyatiga xos individual uslub varitm ham bir butunlik sifatida tahlil qilinadi. Shoir ijodiga xos uslub haqida gapirar ekanmiz ritmik masalalarni ham chetdab o'tolmaymiz. Zero, shoir uslubining asosiy qirralariva muhim xususiyatlari ritmik tahlillarda yuzaga chiqadi. Bu tahlil davomida birinchi darajali ritmik bo'laklar sifatida bo'g'in, qofiya, turoq, misra, band va pauzalar, shuningdek, yordamchi ritmik vositalar sifatida esa, takrorning turli ko'rinishlari, ohangdorlik darajasi, badiiysan'atlar va stilistik figuralarning imkoniyatlari va vazifasi haqida to'htalib o'tiladi. Bog'. O'rindiq. Izhor va inkor.

O'rtanaman sog'inib dildan.

Yomg'ir, qorlar yoqqan u bahor

Nega hanuz chiqmas yodimdan.

Esingdami, ko'p gapirardim,

Esingdami, eshitarding jim.

Senga yaxshi ko'rinay derdim,

Lekin yaxshi ko'ringan u kim?

Sochlarimga oq oraladi,

Oralarmi qalbingga titroq,

Qismat meni ko'p qoraladi,

Ayt, qo'llaring o'shandaymi – oq? [5, B 350-351].

Barmoq vaznida yozilgan ushbu she'rni boshdan oxir shoir ijodida eng ko'p uchraydigan to'qqiz bo'g'inli misralardan tashkil topgan va a-b-a-b tarzida qofiyalanganligi



sabab, izometrik (misralarida bo'g'inlar soni bir xil – teng bo'lgan) she'r deyish mumkin. She'rdagi barcha ritmik vositalar o'z o'rnida qo'llanganligi hamda she'r mazmunida lirik qahramonning hasrati, hijron va sog'inch kabi intim iztiroblari yaqqol sezilib turgani bois mahzun kuyni, betakror ohangni hosil qilgan. “An'anaviy tushunchaga ko'ra, she'riy nutq muayyan bir o'lchov (vazn) asosidagi ritmga ega, o'zining musiqiy jarangi, hissiy to'yintirilganligi bilan farqlanuvchi nutqdir. She'riy nutqdagi o'ziga xos intonatsiya, musiqiylik muayyan vaqt davomida takrorlanuvchi ritmik bo'laklar va ularni ta'kidlovchi ritmik vositalar, o'ziga xos fonetiktashkillanish, turli-tuman sintaktik usullar yordamida vujudga keladi” .[6,B 205]

Birinchi bandning birinchi misprasidagi turoqni tashkil qilgan atov gaplar va uchinchi misradagi uyushiq bo'laklar o'rtasidagi ritmik pauzalar sokin va mahzun ohangdorlikni yuzagakeltirgan. Shuningdek, lirik qahramon qalbidagi javobsiz savollarga yechim izlagan so'roq ohangidagi satrlar, ikkinchi banddagi bo'g'in va vaznda muvofiqlashgan, tagma-tag kelgantakroriy jumlar mazmundagi ta'kidni kuchaytirishga, iztiroblar darajasini hamda ritmik jozibadorlikni yana-da oshirishga xizmat qilgan. Uchinchi banddagi fonetik takrorlar, ya'ni “o” va “q” tovushlarining turli o'rinlarda takrorlanishi she'r ritmiga musiqiylik baxsh etgan. Yuqori keltirilgan ritmik tahlillardan yordamchi ritmik vositaning imkoniyatlarini qaydarajada samarali ekanligini ko'rish mumkin. She'r boshidan bir tekis sokin ohang uchinchi bandga kelib, mazmunidagi o'zgarish (lirik qahramonning o'tmish haqidagi o'ylari yakunlanib, ayni vaqtdagi kayfiyat tasviri beriladi)sabab, she'rning ohangdorlik darajasi ham, tezligi ham biroz ortadi. Ayni holat ritmnining mazmun va shaklda uyg'unlashuvidir. Qachonki, she'rda tashqi (shakliy) ritmiklik va ichki (mazmuniy) ritmiklik mushtaraklik kasb etsa, u she'rdagi ritmik ohang pafos darajasiga ko'tariladi.

Sizning qaynoq qo'lingiz bilan
Hasrat berdi Yaratgan Egam,
Shuning uchun, bo'lsa-da tikan
Bu in'omga egildim kam-kam.
Oxiratdan gap ochmang, u uy



Allaqachon kuyib kul bo'lgan.
Qalb jomiga to'la mungli kuy,
Paymona ham qadahdek to'lgan.
Qil ustida titroq ishqimiz
Har bir kuni hayot va momot.
Shuning uchun yozu qishimiz
Osmonidan quyilar faryod. [5,B 352-353].

“Asta-asta qisqarar umr...” deb boshlanuvchi mazkur she'r ham yuqoridagi she'r kabi to'qqiz hijoli barmoq vaznida yozilgan, musiqiy izometrik she'rdir. 4+5 tarzidagi turoqlanish, a-b-a-b tarzidagi qofiyalanish hamda pauzalarining bir me'yorda tashkillanishi yagona ritmik maromnitashkil qilgan. Bundan tashqari, she'r mazmundagi lirik qahramon iztiroblari ritmik vositalar-la birlikta yuzaga qalqib chiqib, she'r ohangidagi mahzundorlikni oshirgan. Ko'rinibturibdiki, har ikki she'rda ham ritmik bo'laklar muayyan vaqt oralig'ida bir xil ko'rinishda takrorlanib turibdi. Ritmiklakning eng asosiy belgisi ham shu. Adabiyotshunos D.Quronov ta'biri bilan aytganda, “...keng ma'noda ritm muayyan bo'laklarning ma'lum vaqt oralig'ida takrorlanishi, she'riy ritm esa she'r misralaridagi ritmik bo'laklarning ma'lum o'lchov asosida tartibli takrorlanishidan hosil bo'luvchi ohang tushuniladi”. [3,B 315]

Bu she'rlarda Salim Ashur ijodiga xos bo'lgan hasrat va iztirob bo'rtib turgan sokin va dardliishqiy lirika, mahzun ritmik ohang yetakchilik qiladi. She'rning, asosiy, ritmikasi yana-da jozibadorlik baxsh etgan tanosib badiiy san'ati (bir uya yoki guruhga mansub hamda ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarning ishtiroki)ni ko'rishimiz mumkin: 1. Oxirat, paymona, hayot va momot, osmon; 2. Qalb, ishq, faryod, jom, qadah, kuy. Bir qarashda tanosib hosil qilgan bu metaforik obrazlarni yuzaga keltirib, bir-biriga zid tushunchalarni anglatmoqda. Bunday vaziyatda ritmik harakat va ohangdorlik poetik obrazlarning birining ikkinchisi orqali badiiy g'oyani ochishdagi roli beqiyosdir. Shoirning uslubiy o'ziga xosligi shundaki, u qarama-qarshi ma'noga ega ko'chimlar orqali yaxlit, tugal fikrni falsafiy ohangda, holatni dialektik ziddiyatlarda ifodalaydi. Bu ikkilamchi ritmik vosita



mazkur she'rning mazmuniy bo'yoqdorligini hamda ritmik jozibadorligini oshirganligi yaqqol sezilib turadi.

Nechuk bu bog'? Nechuk bunda

Qushlar tunda sayraydi?

Nechuk tog' bu? Nechuk tunda

Toshni qayroq qayraydi?

Nechuk diyor, nechuk o'lka,

Nechuk vatan, nechuk yurt,

Nechuk bunda hamma o'lgan,

Yonar oxirgi gugurt. [5,B 65]

Shoir ijodidagi o'ziga xosliklardan biri bu takrorlarga va so'roq gaplarga ko'p murojaat qilishdir. Har ikki holat ham she'rga alohidalik hamda betakror ritmik ohang bag'ishlaydi. Ushbu “Yurak” she'ri boshdan oxir so'roq olmoshining takrori evaziga hosil bo'lgan so'roq gaplardan tashkil topgan. Shuningdek, barmoqning keskin va shiddatli ohangdorlikni hosil qiluvchi 7 va 8 bo'g'inli vaznida yozilgan bo'lib, a-b-a-b tarzida qofiyalanishga asoslangan. Turoqlanish esa 4+4, 4+3 ko'rinishida tashkillangan.

Ijtimoiy mavzudagi ushbu she'r majoziy ma'noda yaratilgan bo'lib, kuchli salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan bog', tog', tunda sayrayotgan qushlar, toshni qayrayotgan qayroq, yonayotgan oxirgi gugurt obrazlari misolida lirik qahramonga ma'lum bo'lgan muayyan bir davr va u yerdagi ijtimoiy muhitdan norozilik holatlari aks ettiriladi.

Lirik qahramonni bu yurtdagi qushlarning kunduzi emas, tunda sayrash, toshni qayroq qayrash, o'liklarga to'la makon, yonaytgan oxirgi gugurt kabi sirli, yashirin holatlar hayratga soladi va u yerdagi insonlarni nega bu holatga tushganiga ajablantiradi go'yo. Aslida esa, bu oyog'iosmondan bo'lgan voqealarning sababi o'ziga ham ayon. Shuning uchun lirikqahramon o'ziga-o'zi javobi ma'lum bo'lgan, ammo yechimi bo'lmagan ritorik sivo'larni ustma-ust yog'diradi. She'r uslubi shaklan va mazmunan ham Cho'lponning “Buzilgan o'lka” va “Yong'in” she'rlariga yaqinturadi.

Takrorlarning vazifasi fikrni ta'kidlash, kuchaytirish bo'lgani bois ular ayni o'sha ohangda, ya'ni yuqori ovozda va mantiqiy urg'u bilan o'qilishi shart, shunday ekan, bu



hodisa she'r ritmiga ta'sir qilmay qolmaydi. She'rning to'qqiz o'rnida takrorlangan “Nechuk” so'rovq olmoshining har biri olgan alohida mantiqiy urg'u she'r ritmikasiga kuchaytiruv va ta'kidlov ohanglarni yuklaganini hamda baland ritmik ton va intonatsiya hosil qilganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, intonatsion ritmik ohang ortida nafrat, g'azab, alam kabi iztiroblarni sezish mumkin.

Ikkinchi badda ketma-ket kelgan so'roq so'zlari natijasida intonatsion tezlik keskin oshadi, ovoz toni ham yuqoriga ko'tariladi. Go'yoki lirik qahramon bo'g'zida tiqilib qolgan alam va iztiroblarini qaytarib tashlab barcha og'riq va azoblardan xalos bo'limqchidek hayqiradi. She'r ritmida ayni hayqiriq-da, baland ritmik intonatsiyada akslanadi

O'n sakkizda gul ochgan shu qiz,
O'n sakkizda dil oshgan shu qiz,
O'n sakkizda bo'y sochgan shu qiz,
O'n sakkizdan o'tar bir zumda
O'n sakkizda sevilgan shu ko'z,
O'n sakkizda sevilgan shu yuz,
O'n sakkizda sevilgan shu qiz
O'n sakkizda qoladi mangu! [5,b 83].

Shoir ijodiga xos an'anaviy to'qqiz bo'g'inli barmoqda yozilgan bu she'r 4+5 tarzida turoqlanib, a-a-a-b tarzida qofiyalangan. Misralar orasidagi barcha pauzalarning qisqaligi va ular orasida birorta to'liq pauza yo'qligi ohangdaga tezlik va keskinlikni oshiradi. Buyaxlit musiqiy ohang she'r ritmikasidagi ravonlik, takrorga asoslangan musiqiy so'z va ifodalarda zuhur topganligi bois quvoq va shirali ohangdorlikni tashkil qiladi. Takrorningturli ko'rinishlaridan biddiy-g'oyaviy maqsad yo'lida foydalanish Salim Ashur ijodining asosiy uslubiy xususiyatidir. Mazkur she' yuqoridagi she'rlardan farqli tarzda anaforik takrorlar asosiga qurilgan. Anafora – “...so'z yoki so'zlar guruhining misra yoki band boshida takrorlanishi, so'z takrorining xususiy ko'rinishi. Anafora ma'lum fikr. His-tuyg'u, holat va h.ni ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qiladi, tabiiy ravishda she'rning hushohangligini ham oshiradi”. [2, B 29].



Misra boshida kelgan bu anaforalar gap bo'laklaridagi mantiqiy urg'uni o'ziga oladi va har takrorda gapning shu bo'lagi alohila zarb bilan, ta'kidlab o'qiladi. Shoirning badiiymaqسادi ham ayni o'rinda yuzaga chiqadi. Lirik qahramon o'n sakkiz yoshligida oshiq bo'lgan bu qiz har doim uning nigohida shu yoshida muhrlanib qoladi. She'r ritmiga xos shiddatkor, jarangdor ritmik ohang she'rning boshidan oxiriga qadar bir xil tarzda takrorlanadi. Salim Ashur ijodida bu kabi takrorning turli ko'rinishlariga asoslangan o'ndan ortiq she'rlarni uchratish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ushbu maqolda Salim Ashurning ayrim she'rlarining uslubi va ritmini haqida so'zlangan. Shoir Salim Ashur boshqa ijodkorlardan farqli ravishda o'z she'rlarida betakror uslub va ritmlardan foydalanganligi haqida ma'lumot berilgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Н.Хотамов, Б.Саримсоқов. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекчи изоҳли луғати. – Тошкент. Ўқитувчи, 1979. 296-бет. (364 б)
2. Қуронов Д ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т.: akademnashr, 2013. 341-б.
3. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент. Академнашр, 2018. 292-б. (480 б)
4. Ғаниев И. Афоқова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. – тошкент. Муҳаррир нашриёти, 2021. 4-бет.
5. Ашур С. Муҳаббат китоби – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2018. 350-351-бетлар
6. Quronov Dilmurod. Badiiy nutqning ritmikligi //Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Toshkent “iimovatsiya-Ziye” 2020. – 205-b
7. Қуронов Д ва б. Адабиётшунослик луғати. – Т.: akademnashr, 2013. 29-б.